

O'ZBEKISTONDA INFLATSIYA VA YASHASH HARAJATLARI

Ozodkhon Tulanboeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, inflatsiya darajasi va yashash xarajatlari muammolari aholi uchun dolzarb masalalarga aylangan.

Tadqiqotda inflatsiyaning asosiy sabablari, jumladan, tovar va xizmatlar narxlarining o'sishi, pul massasi oshishi va global iqtisodiy holatning ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inflatsiya, iqtisodiy islohotlar, aholi daromadlari, ijtimoiy himoya, davlat siyosati, xarajatlar strukturasi, bozor iqtisodiyoti, inflyatsion bosim, iqtisodiy barqarorlik.

Аннотация: несмотря на проводимые в последние годы в Узбекистане экономические реформы, проблемы инфляции и роста стоимости жизни стали актуальными для населения. В исследовании анализируются основные причины инфляции, включая рост цен на товары и услуги, увеличение денежной массы и влияние мировой экономической ситуации.

Ключевые слова: инфляция, экономические реформы, доходы населения, социальная защита, государственная политика, структура расходов, рыночная экономика, инфляционное давление, экономическая стабильность.

Abstract: although economic reforms have been implemented in Uzbekistan in recent years, the problems of inflation and the cost of living have become urgent issues for the population.

The study analyzes the main causes of inflation, including the growth of prices for goods and services, the increase in the money supply, and the impact of the global economic situation.

Key words: *inflation, economic reforms, population incomes, social protection, public policy, expenditure structure, market economy, inflationary pressure, economic stability.*

“Inflatsiya” so’zi birinchi marta 1864-yilda amerikalik iqtisodchi A.Delmer tomonidan iqtisodiy oborotga kiritiladi, ya’ni, bunga AQSH Federal hukumati 1861-1865 yillarda mamlakat fuqarolar urushi davrida davlatning xarajatlarini qoplash maqsadida muomalaga juda katta miqdorda qog’oz pullarni ishlab chiqarishi sabab bo’ladi. Qisqacha qilib aytadigan bo’lsak, inflatsiya bu pul muomalasi qonunlaring buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini bildiradi. Inflatsiya (lotincha inflatio - shishish, bo’rtish, taranglashish) - ma’lum davr mobaynida mamlakatda baholar o’rtacha(umumiy) darajasining barqaror o’sishi hamda narxlarning umumiy darajasi ko’tarilishi natijasida pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishidir. Shuningdek, bu orqali mamlakatning milliy valyutasining yoki pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi. Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo’lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo’llanilmoqda. “Target”so’zi ingliz tilidan olingan bo’lib,“maqsad”degan ma’noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko’rsatkichi (target) o’rnatiladi. Inflyatsiyaning maqsadli ko’rsatkichi (targeti)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o’tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniladi. O’z navbatida, ushbu rejimning qo’llanilishi narxlar barqarorligini ta’minlash orqali o’rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o’sish uchun qo’shimcha sharoitlar yaratishi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo’llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi. 2019-yil 18-noyabrdagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o’tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish

to'g'risida"gi PF-5877-sonli farmonida O'zbekiston Markaziy banki 2020-yil 1-yanvardan bosqichmabosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tishi belgilangan edi. Ushbu farmonda inflyatsiya darajasini 2021-yilda 10 foizgacha, 2023-yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni (target) o'rnatish rejalashtirilgan edi. Mamlakat ichidagi tovar va xizmatlar bahosining o'sib borishiga ko'ra inflatsiya sudraluvchi inflatsiya, shiddatli inflatsiya hamda giperinflatsiyaga bo'linadi. Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon. Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflyatsiyaning umuman yo'q bo'lishi esa iqtisodiyotning o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi.

O'zbekistonda markaziy bank tomonidan pul massasining oshishi, iqtisodiyotda talabning ortishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, narxlarning oshishiga sabab bo'ladi. Xalqaro bozor narxlarining o'zgarishi, ayniqsa, energetika va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi, O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni, vaqtinchalik noaniqliklar va narxlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Yashash xarajatlari — bu aholi tomonidan kundalik hayotda sarflanadigan mablag'lar yig'indisidir. U quyidagi asosiy toifalardan iborat. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi aholi uchun eng muhim xarajatlar qatoriga kiradi. Oziq-ovqat narxlari inflatsiyaning eng sezilarli ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Uy-joy ijarasi va kommunal xizmatlar narxlari ham yashash xarajatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda uy-joy bozoridagi o'zgarishlar aholi uchun muhim masala hisoblanadi. Transport xizmatlari va aloqa xarajatlari ham aholi byudjetiga ta'sir qiladi. Yo'l harajatlari va mobil aloqa narxlari o'zgarishi aholi harakatlanuvchanligini cheklashi mumkin. Inflatsiya darajasi

yuqori bo'lganida, aholi farovonligi pasayadi. Narxlarining oshishi. Aholining real daromadlari kamayishi natijasida xarid qilish qobiliyati pasayadi. Yashash xarajatlarining oshishi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, qashshoqlik darajasining ortishi. O'zbekiston hukumati inflatsiyani nazorat qilish va yashash xarajatlarini kamaytirish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Markaziy bank tomonidan pul siyosatini qat'iylashtirish, foiz stavkalarini oshirish orqali inflatsiyani nazorat qilishga harakat qilinmoqda.

Kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bozor mexanizmlarini rivojlantirish va raqobat muhitini yaxshilash orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda inflatsiya va yashash xarajatlari masalasi aholi hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va iqtisodiy islohotlar bu masalani hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun ushbu masalalarga e'tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev, -T. : “Iqtisod-Moliya”, 2019.- 153-bet.
2. E.I.Ergashev, N.S.Kasimova, U.K.Muxtorova, G.X.Nazarova, M.E.Jabborov; -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 38-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-sonli farmoni.